

Mamatkulova Bakhtijon Ravshanovna

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
shodiyonichkailhomova@gmail.com+998975989090*

Annotatsiya: Ushbu maqola turli tizimli tillarda onomastik leksikaning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq qilishga qaratilgan. Onomastik leksika lingvomadaniy realiyalar hisoblanib, noekvivalent leksika hamdir. Muqobili o'zga tillarda mavjud bo'lмаган со'з yoki terminlar (onomastik leksika) o'sha original tilda qanday yo'l va yo'sinda o'r ganilishini, o'r ganish natijasida onomastik leksikaning aniqlangan xususiyatlarini qiyosiy-chog'ishtirma ravishda tadqiq qilish mazkur maqolaning maqsadlaridan birini tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: onomastika, leksika, lingvistik, analogiya, lingvokulturologiya.

ОСОБЕННОСТИ ОНОМАТИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ В РАЗНЫХ СИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ

Маматкулова Баҳтижон Равшановна

Чирчикское высшее танковое командное инженерное училище

Аннотация: Целью данной статьи является исследование лингвокультурологических особенностей ономастической лексики в разных систематических языках. Ономастическая лексика является безэквивалентной лексикой, поскольку считается языковой реальностью. Альтернативные слова и термины, не существующие в других языках (ономастическая лексика), изучаются на том же языке оригинала, а характеристики ономастической лексики, выявленные в результате исследования, изучаются перекрестным способом одна из целей этой статьи.

Ключевые слова: ономастика, лексика, лингвистика, аналогия, лингвокультурология.

FEATURES OF ONOMASTIC LEXICON IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES

Mamatkulova Bakhtijon Ravshanovna

Chirchik higher tank commanding Engineering school

Abstract: This article is aimed at researching the linguistic and cultural features of the onomastic lexicon in different systematic languages. The onomastic lexicon is a non-

equivalent lexicon as it is considered a linguistic reality. Alternative words and terms that do not exist in other languages (onomastic lexicon) are studied in the same original language, and the characteristics of the onomastic lexicon identified as a result of the study are studied in a cross-sectional manner. making is one of the goals of this article.

Key words: *onomastic,lexics, linguistic, analogy, linguoculturology.*

1. Kirish.

Ma'lumki, o'zbek tili Urol-Oltoy tillar oilasidagi Turkiy tillar guruhiga mansub. Mazkur tillardagi so'zlarning yasalishiga ko'ra agglyutinativ (so'z yasalishida suffikslar ko'p ishtirok etadigan) tizimga ega. Lekin rus tili Hind-Yevropa tillari oilasidagi Slavyan tillari guruhida joy olgan bo'lsa, ingliz tili esa mazkur Hind-Yevropa tillari oilasidagi German tillari guruhiga tegishli va bu tillar fleksiyali (so'z yasalishida va lisoniy konstruksiyalarda affikslar (prefikslar) va predloglar ko'p qo'llanadigan) tillar deb nomlanadi [1:18]. Ushbu turli tizimga oid tillardagi onomastik leksikaning o'rganilishini lingvokulturolgik aspektida, qiyosiy-chog'ishtirma ravishda tadqiq qilish kutilmagan natijalarga olib kelishi va muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Inson o'z intellektual salohiyatining rivojlanishi tarixida sanamoqni o'rgangandan keyin qiyoslamoqni ham yaxshi o'zlashtira oldi [2:37]. Qiyoslash madaniyat bilan, madaniyat esa qiyoslamoq bilan hamohang, shuning uchun qiyoslash (chog'ishtirish asosida tadqiq qilish) keng ma'noda umumlashtirish va farqlamoq demakdir. Taniqli olim va yozuvchi O. Mandelshtam o'zining "Dante

bilan suhbatda" nomli asarida: "Men qiyoslayapman, demak men tirikman" [3:12] degan edi. M. Fukoning ta'riflashicha, qiyoslash - "aniqlashni taqozo qiladigan, tafakkurni boyitadigan, bilish va anglashni charxlaydigan eng universal, eng oddiy, shu bilan birga eng murakkab elementdir" [4:66]. Tillarni qiyosiy o'rganish natijasida turli lisoniy va nolisoniy qonuniyatlar yuzaga chiqadi. I. Kantning "Mantiqiy refleksiyalar" to'g'risidagi ta'limotiga asosan barcha tushunchalarning mohiyati qiyosiy yo'l bilan aniqlanishi mumkin. Biror bir belgining xususiyati bizning mantiqiy apparatimizda induktiv va deduktiv yo'l bilan hamda analogiya yordamida taqqoslanadi va farqlanadi [5:18].

Kognitiv strukturalar kommunikasiyani, unga bog'lik kompetensiyalarni rivojlantiradi va bu jarayonda onomastik leksika muhim o'rinni egallaydi, ular millatning lingvokulturologik hamda madaniy-tarixiy tajribasini maksimal darajada mujassam qila oladi.

Onomástika - tilshunoslikning bir bo'limi (qadimgi yunon tilida - ὀνομαστική - nomlash san'ati) hisoblanib, ma'lum bir tilda ularning paydo bo'lishi, ularning uzoq muddat davomida yoki boshqa tillar ta'sirida o'zgarishini va umuman atoqli otlarni tadqiq qilishni o'ziga maqsad qilgan [6]. Tor ma'noda

onomastika – turli turdag'i atoqli otlar, ya'ni *onomastik so'zlar* yig'indisi – onomastik (onimik) leksika demakdir.

Shunday qilib, onomastikaning tadqiqot predmeti – onim (atoqli otlar, turli xil nomlanishlar) bo'lib, u tanlab olingan ob'ektni boshqa ob'ektlar orasida ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Onomastika so'zining sinonimlari quyidagilardir:

- Onomatika – otlarning ma'nosi va ularning paydo bo'lishi haqidagi ta'limot [7]. Mazkur termin eskirgan deb tan olingan va iste'moldan chiqarilgan.

- Onomatologiya – tilshunoslikning bir bo'limi hisoblanib, atoqli otlarni tadqiq qiladi [8]. Onomatolog (onomast) – onomastika sohasidagi tadqiqotchi.

- Onomasiologya (onomatologiya) (ingl. *onomasiology*) – tilshunoslikning bo'limi hisoblanadi va ma'lum bio hodisa hamda narsalarning nomlanishini tadqiq qiladi [9].

- Toponomastika – ilmiy manbalarda onomastikaning ro'yxatga olingan, biroq, eskirib qolgan ta'rifi [10].

Onomastikaga oid ilmiy asarlarda sinxronik yondashuv doim ustunlik qilgan. Lekin "dioxronik ravishdagi tadqiqotlarda atoqli otning mazmuni ularning ichki shakli bilan o'zaro chambarchas bog'liq" [11:8]. Onomastik leksikaning lingvokulturologik hamda pragmatik imkoniyatlarini tahlil qilish dastlab uni sinxron ravishda o'rganishni taqozo qiladi. Onimlarni tizimli ravishda o'rganish uchun diaxronik ma'lumotlarni jalg qilish lozim bo'ladi, zero tadqiq qilinayotgan ob'ektning kelib chiqishi kabi tarixiy manbalarsiz onomastik leksikani tizimli ravishda tadqiq qilishning iloji yo'q.

Tilshunoslik-madaniyashunoslik usullari ma'lum darajada N. Alefirenko [12], YE. Bartminskiy [13], A. Vejbiskaya [14], V. Vorobyov [15], M. Golubovska [16], V. Kononenko [17], V. Kosevich [18] va boshqalarning asarlarida o'z o'rniga ega. V. Kononenkoning so'zlariga ko'ra, tilshunoslik-madaniyashunoslik usullari an'anaviy (kuzatish, eksperiment, modellashtirish, qayta qurish, so'rovnama) va zamonaviy usullarga bo'linadi, ular ramkalar, geshtaltlar, tushunchalar, metaforalar, presuppozisiyalar, afsonalar, rivoyatlarning so'nggi tadqiqotlari bilan bog'liq. "sezgi → matn" modellari va boshqalar, shuningdek, madaniy va sosiologik uslublar: tahlil, dala etnografiyasi vositalari, ijtimoiy-lingvistik intervyyu [19:27].

Xulosa

N. Alefirenko tilshunoslik va madaniyatshunoslikning quyidagi usullarini alohida ko'rsatib o'tgan: diaxronik (vaqt bo'yicha turli til-madaniy birliklarni qiyoslash); sinxron (sinxron lingvistik-madaniy birliklarni qiyoslash); strukturaviy-funksional (madaniyat ob'ektini qismlarga bo'lish va ular orasidagi aloqalarni aniqlash); tarixiy-genetik (lingvistik-madaniy faktni kelib chiqishi,

rivojlanishi va ularning keyingi faoliyati nuqtai nazaridan tahlil qilish); tipologik (tarixiy-madaniy jarayonda turli lingvistik-madaniy birliliklarning tipologik yaqinligini aniqlash); qiyosiy tarixiy (vaqt bo'yicha noyob lingvistik-madaniy birliliklarni taqqoslash hamda ularning mohiyatiga kirib borish) [20:29].

Bugungi kunda onomastika sohasida faoliyat yuritgan va yuritayotgan taniqli tilshunos olimlar, xususan, Y. Karpenko [21], V. Nikonov [22], V. Luchik [23], YE. Otin [24], N. Podolskaya [25], A. Superanskaya [26] va boshqalar asarlaridagi tadqiqot usullari tahlil qilinishga loyiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gusanov N. Leksicheskiye i semanticheskiye osobennosti antroponimov v yazike pismennix pamyatnikov XV veka. Dissertasiya dokt. fillog. nauk. T., 2000.
2. Kognitiv baza, ya'ni anglash, bilish (kognisiya) natijasida hosil qilingan bilimlar to'plami.
3. Gumboldt Vilgelm fon. Izbrannye trudi po yazikoznaniyu. Moskva: Progress, 1984. – 400 s. (S. 18.)
4. Sepir E. Izbrannye trudi po yazikoznaniyu i kulturologii. M., 1993. S. 37.
5. Mandelshtam O.E. Slovo i kultura. M., 1987. S. 121.
6. Fuko M. Arxeologiya znaniyu. Kiyev, 1996. S. 66.
7. Kant I. Izbrannye trudi. M., 2003.
8. Slovar inostrannix slov. [elektron resurs].
9. Slovar inostrannix slov / Mixelson A.D., 1865.
10. Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii / Otv. red. A. V. Superanskaya. Izd. 2-ye, pererab. i dop. M.: Nauka, 1988. - 192 s. 28 000 ekz. ISBN 5-256-00317-8.
11. Slovar inostrannix slov. [Elektronniy resurs]. Murojaat sanasi: 27 avgust 2022 y.
12. Podolskaya N. V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii / Otv. red. A. V. Superanskaya. Izd. 2-ye, pererab. i dop. M.: Nauka, 1988. - 192 s. 28 000 ekz. - ISBN 5-256-00317-8.
13. Yermolovich D.I. Imena sobstvenniye na stike yazikov i kultur. M.: R. Valent, 2001. 200 s.
14. Aliferenko N.F. Lingvokulturologiya. Gennostno-smislovoye prostranstvo yazika. Moskva: Nauka, 2010
15. Bartminskiy YE. Yazikovoy obraz mira: ocherki po etnolingvistike: [per. s pol.] / Yeji Bartminskiy; [sost. i otv. red. S. M. Tolstaya]. - Moskva: Indrik,

2005. - 527 s., [1] l. portr.: tabl.; 22 sm. - (Tradisionnaya duxovnaya kultura slavyan: TDKS. Zarubejnaya slavistika); ISBN 5-85759-347- 6: 500.

16. Vejbiskaya A. Yazik i kultura. Poznaniye. M.: Russkiye slovari, 1966. S. 201-231.
17. Vorobyev V. V. Lingvokulturologiya. M.: Izd-vo RUDN, 2008. - 340 s.
18. Golubovska M.A. (2016). Suchasna ukrayns'ka lingvokonceptologiya: stan I perspektivi rozvitu. Aktual'nI problemi filologIy ta perekładoznavstva, 1, 151-159.
19. Kononenko V.I. Ukraina linhvokul'turolohiy. Kiev: Vishcha shkola, 2008.
20. Kosevich V.B. Elementi obshey lingvistiki. M.: Nauka, 1977. - 177 s.
21. Kononenko V.I. Ukraina linhvokul'turolohiy. Kiev: Vishcha shkola, 2008.
22. Aliferenko N.F. Lingvokulturologiya. Gennostno-prostranstvo yazika. Moskva: Nauka. 2010.
23. Karpenko Y. Metodologiya i metodika onomastiki kak nauki. Zapiski z ukraínskogo movoznavstv. Kiíiv, 2009. S. 292-289.
24. Nikonov V. A. Russkaya onomastika i onomastika Rossii. Pod red. [O. N. Trubachyova](#). – M.: Shkola-Press, 1994. – S. 145.
25. Luchik V.V. Pozamovni chinniki y kategoriy oykonimnoi nominati. Studiy z onomastiki ma etimologíí. c. 193-201.
Otin YE.S. Slovar konnotativnih sobstvennih imen. Izdatelstvo Uralskogo universiteta. 2005. <http://hdl.handle.net/10995/1>